

TARBIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING DIDAKTIK SALOHİYATI: WORDWALL MISOLIDA

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida (5-9-sinflar) Tarbiya fanini o'qitish jarayonida Wordwall interaktiv platformasining didaktik imkoniyatlari, metodik qo'llanish texnologiyasi va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning axloqiy tafakkuri, ijtimoiy mas'uliyati va milliy qadriyatlarga sodiqligini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilanadi. Muallif tomonidan Wordwall platformasining o'yin texnologiyalariga asoslangan interaktiv topshiriqlar orqali yuqori sinf o'quvchilarida murakkab axloqiy tushunchalarni mustahkamlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va baholash jarayonlarini soddalashtirishdagi imkoniyatlari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya fani, Wordwall platformasi, interaktiv ta'lim, gamifikatsiya, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, formativ baholash, raqamli pedagogika.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'qitish metodikasiga bo'lgan yondashuvlarni tubdan yangilamoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlari – o'smirlilik davridagi psixologik o'zgarishlar, mustaqillikka intilish, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi – ta'lim jarayonini tashkil etishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Tarbiya fani esa o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, axloqiy mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, oilaviy munosabatlar kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yoshlarni vatanparvar, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Bu vazifani amalga oshirishda Tarbiya fanining o'qitish metodikasini takomillashtirish, dars jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Wordwall platformasi – bu o'qituvchilarga o'yin elementlariga asoslangan interaktiv topshiriqlar, testlar, viktorinalar, moslashtirish mashqlari va baholash vositalarini yaratish imkonini beruvchi raqamli vositadir. Ushbu platformaning yuqori sinf Tarbiya fanida qo'llanilishi nafaqat darsni jonlantirish, balki murakkab axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va baholash jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'smirlar uchun o'yinli yondashuv motivatsiyani oshiradi, mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Asosiy qism. Yuqori sinflarda (5-9-sinflar) Tarbiya fanining mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

-milliy va umuminsoniy qadriyatlar – mustaqillik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, inson huquqlari;

-axloq va odob – halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, o'zaro hurmat, odob qoidalari;

-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi – vatanni himoya qilishga tayyorlik, harbiy burch, qahramonlik;

-oilaviy munosabatlar – oilada o‘zaro hurmat, ota-onaga mehr, nikoh va oila qadriyatlarini;

-sog‘lom turmush tarzi – jismoniy va ruhiy salomatlik, zararli odatlardan saqlanish, gigiyena;

-ijtimoiy faollik – jamiyatda faol ishtirok etish, ixtiyoriylik, yetakchilik;

-kiberxavfsizlik va ma'naviy immunitet – internet muhitida xavfsizlik, axborot madaniyati.

Ushbu mavzularning aksariyati mavhum tushunchalar (vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mas’uliyat) asosida qurilgan bo‘lib, ularni an’anaviy usullar bilan o‘qitish ko‘pincha yetarli samara bermaydi. O‘smirlar yoshidagi o‘quvchilar esa mavzuning hayotiy misollar bilan mustahkamlanishiga, ularni faol ishtirok etishga undaydigan, raqobat elementlarini o‘z ichiga olgan metodlarga ehtiyoj sezadi. Wordwall platformasi ana shu ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Wordwall platformasi Tarbiya fanida quyidagi didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi:

Tarbiya fanidagi “bag‘rikenglik”, “tolerantlik”, “ma’naviy immunitet”, “ijtimoiy mas’uliyat” kabi mavhum tushunchalarni Wordwall orqali vizual va interaktiv topshiriqlar yordamida o‘zlashtirish mumkin. Masalan, “Atamalarni moslashtirish” topshirig‘i orqali o‘quvchilar tushuncha va uning ta’rifini, misolni bog‘laydi.

“Guruhlash”, “Tasniflash”, “Ketma-ketlik” kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni farqlash, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Labirint” topshirig‘i esa to‘g‘ri qarorlar zanjirini tuzish orqali axloqiy tanlov qobiliyatini shakllantiradi.

Wordwallning o‘yin elementlari – “Spin the wheel”, “Open the box”, “Whack-a-mole”, “Quiz show” – o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, raqobat muhitini yaratadi. Ayniqsa, “Quiz show” shaklidagi jamoa musobaqalari yuqori sinf o‘quvchilari orasida yuqori motivatsiya beradi.

Platformada bir xil mazmuni turli shakldagi (test, moslashtirish, labirint, aylantiruvchi g‘ildirak) topshiriqlarga aylantirish imkoniyati mavjud. Bu esa o‘qituvchiga kuchli, o‘rta va qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun turli darajadagi topshiriqlar tayyorlash imkonini beradi.

Wordwall topshiriqlari natijalarini tezkor tahlil qilish, har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Platformaning avtomatik baholash tizimi o‘qituvchining vaqtini tejaydi va formativ baholashni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Wordwall platformasi internetga ulangan istalgan qurilmadan foydalanish mumkin. Bu esa masofaviy va aralash ta’lim sharoitida Tarbiya darslarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

5-sinf o‘quvchilari o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikni endi tushuna boshlagan davr hisoblanadi. Wordwall orqali quyidagi topshiriqlar samarali:

Topshiriq turi	Mazmun	Maqsad
-----------------------	---------------	---------------

Moslashtirish	Mustaqillik ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) va ularning ta'rifini moslashtirish	Milliy ramzlarni bilish, ularga hurmat
“Open the box”	“Mustaqillik – bu ...” tushunchasini ochib beruvchi savollar	Mustaqillik mazmunini anglash
“Quiz show”	“O‘zbekiston mustaqilligi” mavzusida jamoa musobaqasi	Bilimlarni mustahkamlash, jamoada ishlash

6-sinf: “Axloq va odob” mavzusi misolida

6-sinf o‘quvchilarida axloqiy tushunchalarni tizimlashtirish, ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash muhim. Wordwall orqali:

Topshiriq turi	Mazmun	Maqsad
“Whack-a-mole”	“Odobli xatti-harakat” va “odobsiz xatti-harakat”ni ajratish	Axloqiy me‘yorlarni farqlash
“Rank order”	Axloqiy fazilatlarni ahamiyat darajasiga ko‘ra tartiblash	Qadriyatlar ierarxiasini shakllantirish
“Labirint”	Berilgan axloqiy vaziyatda to‘g‘ri qarorga olib boruvchi yo‘lni topish	Axloqiy tanlov qilish ko‘nikmasi

7-sinf: “Milliy qadriyatlar va urf-odatlar” mavzusi misolida

7-sinf o‘quvchilarida milliy o‘zlikni anglash, an‘analarga qiziqish kuchayadi. Wordwall orqali:

Topshiriq turi	Mazmun	Maqsad
“Match up”	Milliy bayramlar va ularning ahamiyatini moslashtirish.	Milliy bayramlarni bilish, ularga hurmat
“Group sort”	Turli hududlarning urf-odatlarini guruhlash.	O‘zbekiston xalqlari madaniyatini bilish
“Spin the wheel”	G‘ildirak aylantirilib, tushgan milliy qadriyat haqida ma’lumot berish.	Milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganish

8-sinf: “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi” mavzusi misolida

8-sinf o‘quvchilarida Vatanni himoya qilishga tayyorlik, harbiy burch tushunchalari shakllanadi. Wordwall orqali:

Topshiriq turi	Mazmun	Maqsad
“Quiz”	O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, harbiy tarix, qahramonlar haqida test	Vatanparvarlik bilimlarini mustahkamlash
“Match up”	Harbiy unvonlar va ularning belgilarini moslashtirish	Harbiy tizimni bilish
“Open the box”	“Vatan himoyachisi – bu ...” tushunchasini ochib beruvchi topshiriqlar	Vatanparvarlik tushunchasini chuqurlashtirish

9-sinf o'quvchilari oila qurish, kelajakdagi hayotini rejalashtirish arafasida turadi. Wordwall orqali:

Topshiriq turi	Mazmun	Maqsad
“Rank order”	Oiladagi muhim qadriyatlarni ahamiyat darajasiga ko'ra tartiblash	Oilaviy qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirish
“Group sort”	Sog'lom va zararli odatlarni guruhlash	Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini mustahkamlash
“Labirint”	Zararli odatlarga “yo'q” deyish algoritmini tuzish	Ma'naviy immunitetni shakllantirish

8-sinf Tarbiya fanidagi “Kiberxavfsizlik va ma'naviy immunitet” mavzusini Wordwall platformasi yordamida o'qitish metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Tashkiliy-motivatsion bosqich: “Spin the wheel”
O'qituvchi g'ildirakni aylantirib, o'quvchilarga “Internetda qanday xavflarni bilasiz?”, “Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun muhim?” kabi savollar beradi. Bu bosqichda o'quvchilarning mavzu bo'yicha dastlabki bilimlari faollashtiriladi.

Mavzuni anglash bosqichi: “Match up”

O'quvchilar kiberxavfsizlikka oid atamalar va ularning ta'rifini moslashtiradi:

Atama	Ta'rif
Fishing	Soxta saytlar orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash
Spam	Keraksiz reklama xabarlar
Virus	Kompyuter dasturlariga zarar yetkazuvchi dastur
Troll	Internetda ataylab nizo keltirib chiqaruvchi foydalanuvchi

Mustahkamlash bosqichi: “Group sort”

O'quvchilar berilgan vaziyatlarni “xavfsiz” va “xavfli” guruhlariga ajratadi:

Vaziyat	Guruh
Noma'lum manbadan kelgan havolani ochish	Xavfli
Kuchli parol qo'yish	Xavfsiz
Ijtimoiy tarmoqda shaxsiy manzilni ko'rsatish	Xavfli
Ikki faktorli autentifikatsiyadan foydalanish	Xavfsiz

Tahlil va baholash bosqichi: “Quiz show”

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, “Kiberxavfsizlik” mavzusidagi bilimlarini musobaqa shaklida namoyish etadi. Savollar quyidagi darajalarda tuziladi:

1-daraja: Kiberxavfsizlikning asosiy qoidalari;

2-daraja: Kiberxavfsizlikka oid atamalar;

3-daraja: Hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish.

Refleksiya bosqichi: “Open the box”

O'quvchilar “Mening kiberxavfsizlik qoidam” mavzusida qisqa xulosalar yozadi va ularni ochiq qutichalarga joylashtiradi. Eng muhim qoidalar sinf doskasida namoyish etiladi.

5. Wordwall platformasining formativ baholashdagi o'rni

Wordwall platformasi yuqori sinf Tarbiya fanida formativ baholashni samarali tashkil etish imkonini beradi:

Tezkor natija olish

Har bir topshiriq tugagach, platforma avtomatik ravishda to'g'ri va noto'g'ri javoblar sonini ko'rsatadi. O'qituvchi qaysi tushunchalar o'quvchilar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmaganligini tezda aniqlaydi.

Shaxsiylashtirilgan baholash

Platforma har bir o'quvchining natijalarini alohida qayd etadi. Bu esa o'qituvchiga differensial yondashuvni amalga oshirish, individual qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Motivatsion baholash

Wordwall topshiriqlarida ballar, yulduzchalar, reyting kabi elementlar o'quvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. "Leaderboard" (yetakchilar taxtasi) funksiyasi orqali eng faol va bilimli o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Guruhiy baholash imkoniyati "Quiz show" kabi jamoa topshiriqlari orqali guruhiy ish samaradorligi baholanadi. Bu hamkorlik, o'zaro yordam, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Yuqori sinf Tarbiya fanida Wordwall platformasidan foydalanish o'quvchilarning axloqiy tafakkurini faollashtiradi, dars jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi va tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi. Platformaning didaktik imkoniyatlari – murakkab tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda o'zlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, gamifikatsiya orqali motivatsiyani oshirish, differensial yondashuvni ta'minlash, formativ baholashni soddalashtirish va masofaviy ta'limga moslashuvchanlik – Tarbiya fanining o'ziga xos mazmuni va maqsadlari bilan uyg'unlashadi.

5-9-sinflar kesimida Wordwall topshiriqlarini differensial qo'llash metodikasi o'quvchilarning yosh xususiyatlari va kognitiv tayyorgarlik darajasiga mos ravishda ishlab chiqilgan. "Kiberxavfsizlik va ma'naviy immunitet" mavzusi misolida ko'rsatilgan bosqichma-bosqich topshiriqlar tizimi, formativ baholash mezonlari esa platformadan Tarbiya fanida amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatlarini namoyish etadi.

Shu nuqtayi nazardan, Wordwall platformasini yuqori sinf Tarbiya fani amaliyotiga izchil tatbiq etish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va ushbu vositalardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalarni takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu platformaning boshqa axloqiy-tarbiyaviy mavzular va sinf bosqichlarida qo'llanilishi, uning tarbiya samaradorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Jo'rayev R.H., Turg'unov S.T. Ta'limda raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 240 b.

3. Qodirova N.Q., Mahmudova M.A. Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlarni qo'llashning pedagogik asoslari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – №4. – B. 45-52.

4. Xalqaro bolalar va o'smirlar tarbiyasi: axloqiy tarbiya masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 180 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning Tarbiya fanidan namunaviy o'quv dasturi. – Toshkent, 2020. – 48 b.

6. Уралов, А. Б., & Бердалиева, С. Х. (2020). МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ. Интернаука, (20-4), 81-82.

7. Уралов, А. Б., & Умарова, Б. Х. (2020). ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ. Интернаука, (20-4), 77-78.

8. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (12), 127-131.